



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI


Yanvar-fevral oylari 2022-yil

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining virtual qabulxonasi
orqali kelib tushgan murojaatlar
29

Qo'mitaning elektron veb-sahifasi
orqali kelib tushgan murojaatlar
91

O'zbekiston Respublikasi
Bosh vazirining virtual
qabulxonasi orqali kelib
tushgan murojaatlar
1

To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan
yozma murojaatlar
44



Qo'mita rahbariyatining shaxsiy
va sayyor qabulidagi kelib
tushgan og'zaki murojaatlar
19

Davlat statistika qo'mitasiga 2022-yilning yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslardan 184 ta murojaatlar kelib tushgan.

Ulardan, 29 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 1 ta O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining virtual qabulxonasi orqali, 91 ta Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, 44 ta to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 19 ta qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabulidagi og'zaki murojaatlarni tashkil etgan.




Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)

2022-yil yanvar-fevral oylari holatiga

Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:



42 tasi (jamiga nisbatan 22,8 %) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan



70 tasi (38,0 %) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan



6 tasi (3,3 %) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan



24 tasi (13,0 %) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish yuzasidan



38 (21,0 %) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan




4 tasi (2,2 %) boshqa masalalar yuzasidan murojaatlarni tashkil etgan




Murojaatlarni ko'rib chiqish holati:

2022-yil yanvar-fevral oylari holatiga

Jami: 184



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan jami 184 ta murojaatlarning 129 tasi ijobiy hal etildi, 48 tasi tushuntirildi, ko`rib chiqilmoqda.



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan 38,6 % (71 ta) jismoniy shaxslar va 61,4 % (113 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.



Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlil:

2022-yil yanvar-fevral oylari holatiga

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar	2021-yilda kelib tushgan murojaatlar soni	2022-yilda kelib tushgan murojaatlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0	10
Andijon viloyati	7	8
Buxoro viloyati	8	2
Jizzax viloyati	7	7
Qashqadaryo viloyati	7	6
Navoiy viloyati	9	12
Namangan viloyati	6	9
Samarqand viloyati	4	18
Sirdaryo viloyati	7	10
Surxondaryo viloyati	9	10
Toshkent viloyati	20	9
Farg'ona viloyati	7	5
Xorazm viloyati	9	1
Toshkent shahar	169	76
Boshqa davlatdan	1	1

Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan 76 ta (o'tgan yilning shu davrida 169 ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Samarqand viloyatidan 18 ta, Navoiy viloyatidan 12 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan 10 ta, Surxondaryo viloyatidan 10 ta, Sirdaryo viloyatidan 10 ta, Namangan viloyatidan 9 ta, Toshkent viloyatidan 9 ta, Andijon viloyatidan 8 ta, Jizzax viloyatidan 7 ta, Qashqadaryo viloyatidan 6 ta, Farg'ona viloyatidan 5 ta, Buxoro viloyatidan 2 ta, Xorazm viloyatidan 1 ta va boshqa davlatdan 1 ta murojaatlar kelib tushgan.

Eslatib o'tamiz:



O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagilar orqali murojaat etishingiz mumkin:

Ishonch telefonlari:

(71) 202-81 80

Elektron pochta manzilimiz:

info@stat.uz



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, 2018- yil 1- fevraldan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o'z murojaatlarini Internet tarmog'idan pm.gov.uz manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi.

Siz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi axborot tizimining 2- bo'limidagi Davlat qo'mitalari ro'yxatidan Davlat statistika qo'mitasini tanlab, o'z murojaatingizni yuborishingiz mumkin.

Davlat statistika qo'mitasi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi boshlig'i: F. Berdibayev telefon raqam: (71 202 81 77)